

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA SUV  
XO'JALIGI VAZIRLIGI**

**TOSHKENT IRRIGATSIYA VA MELIORATSIYA  
ISTITUTI**

**YERDAN FOYDALANISH VA YER KDASTRI FAKULTETI  
“GEODEZIYA VA YER KADASTRI ” KAFEDRASI**

***YER KADASTRI***

**2-mavzu: . ER KADASTRI MA'LUMOTLARINI OLİSH  
QAYTA ISHLASH VA TAHLIL QILISH USULLARI**

**2.3. Er kadastro ma'lumotlarini taxlil kilishning  
statistik usullari**

**Тошкент 2013.**

Statistik ma'lumotlarni taxlil kilish statistik tadkikotning eng murakkab va ma'suliyatli, shu bilan birga, yakuniy boskichi xisoblanadi. Agarda statistik kuzatuvning asosiy vazifasi ma'lumotlar yigish bulsa, svodkaning vazifasi olingan ma'lumotlarni birlamchi kayta ishlashni tashkil etadi.

Taxlilning vazifasi esa ijtimoiy vokeilikning mikdorlarida va nisbatlaridagi uzgarishlarda aks etadigan konuniyatlarni aniklash xamda tushuntirish, va shu asosda to'g'ri nazriy va amaliy xulosalar chiqarishdan iborat. Taxlilning mazmuniga uni vazifasini aniqlash, jalb qilinadigan materiallarni tanqidiy baholash, faktlarni e'tirof etish va taqqoslash asosida ularni baholash, belgilar o'rtasidagi o'zaro bog'liklikni aniqlash, tadqiq qilinayotgan jarayonlar dinamikasini aniqlash, taxlil natijalarini tushuntirish, xulosalar va amaliy takliflarni berish kiradi.

Statistik ma'lumotlarni taxlil qilish ijtimoiy jarayonlar rivojlanish qonunlari va shakllariga asoslanishi hamda o'zaro bog'liklikda olingan ma'lumotlarning butun bir jamlamasiga tayanishi zarur. Belgilar o'rtasidagi bog'liklar turli usullar yordamida aniqlanadi. Guruhlash, nisbiy va o'rtacha ko'rsatkichlar, dinmik qatorlar bilan birga parallel qatorlar uslubi, balanslash uslubi analitik Guruhlash uslubi, korrelyasion taxlil uslubidan foydalaniladi.

Parallel qatorlar uslubi, yoki takkoslashbu juda oddiy, lekin shu bilan bir vaktda, turli belgalar o'rtasidagi alokalarni aniqlashning eng usulidir. Bu usulning asosiy moxiyati shundan iboratki, bunda parallel statistik qatorlar kurinishida, jadval shaklida joylashgan ma'lumotlarni taqqosladir buning natijasida esa taqqoslashning eng maqbul ko'rgazmaligiga va ko'rinishiga erishiladi.

Balanslash uslubi-vokeliklar o'rtasidagi alokalar va o'zaro bog'liklarni belgilash va tavsiflash uchun kullaniladi. Bu asosan o'zaro bog'lik kursatkichlarni jadvalda joylashtirish yuli bilan erishiladi, aloxida kismlarni jamlamalari o'zaro teng bulishi zarur. Er kadastri ishlarni bajarishda xisobot yiliga er fondidagi o'zgarishlarning balans jadvali, erlarni transformatsiya qilish jadvali va boqkalar tuziladi.

---

Analitik Guruhlash uslubi turli belgilar o'rtasidagi o'zaro alokalarni taxlil qilishda keng kullaniladi. Bu uslubda bita belgisi bo'yicha ma'lumotlar Guruhlanadi va har Guruh uchun boshqa belgining o'rtacha yoki nisbiy qiymatlari hisoblanadi.

Murakkab ijtimoiy vokelikni kupomilli taxlil qilishning ancha takomillashgan uslublaridan biri bulib korrelyasion taxlil uslubi xizmat kiladi. Bitta vokelikni boshqasi bilan bog'liklik darajasi bo'yicha alokalar ikki turga ajratiladi: funksional va korrelyasion. Funksional deb shunday aloka tushuniladiki, kandaydir bitta belgining mikdori bita yoki bir necha boshqalar belgilar yordamida aniqlanadi. Bunda faktorial belgining ma'lum bir qiymatiga barcha xollarda natijaviy belgining bir yoki bir necha qat'iy aniqlangan qiymatlari to'g'ri keladi.

Masalan, kvadrat shakldagi er uchastkasining maydoni To'la kvadrat tomonlarining ulchamlariga bog'lik, to'g'ri burchakli shakllar esa-uchastkaning uzunligi va eniga bog'lik. Korrelyasion bog'liklikda esa bunday qat'iy moslik mavjud bulmaydi. Bu erda bittagina faktorial belgining qiymatiga odatda natijaviy belgining qator qiymatlari mos keladi. Masalan, yalpi daromad va er egaligining ulchamlari o'rtasidagi xosildorlik va solingan ugitlar mikdori, paxtaning yalpi xosili ekin maydoni va xosildorligi o'rtasidagi aloka shundaydir.

Yalpi daromad, hosildorlik, yalpi hosil miqdorlari nainki er egaligining ulchamlariga, solingan o'g'itlar miqdoriga, paxta ekin maydonlari va hosildorligiga bog'lik, shu bilan birga qator boshqa omillar-xujalikning ixtisosligiga, mexnat va moddiy reserslar bilan ta'minlanganligiga, erning sifatiga, tabiiy-iklimiy sharoitga, sugorish suvi bilan ta'minlanish darajasiga va boshqalarga xam bog'likdir.

Korrelyasion bog'liklikda natijaviy belgi faktorial belgi ta'siri bilan to'laligicha aniqlanmaydi. Bu miqdor fakatgina o'rtacha miqdordagina namoyon buladi, ba'zi xollarda esa belgilangan alokaga teskari keladigan alokalar vujudga keladi.

Yo'nalishi bo'yicha korrelyasion bog'liklik to'g'ri va teskari bog'liklik shakllariga bulinadi. Faktorial belgi qiymatining usishi bilan natijaviy belgi qiymatining usishi kuzatiladigan bog'liklik to'g'ri bog'liklik deyiladi. Bunday bog'liklikka, masalan, xujalikning yalpi daromad miqdori bilan er egaliginining o'lchamlari o'rtasidagi aloqa , ernen unumdorligi bilan hosildorlik o'rtasidagi aloqa v.k.